

Bir necha yil burun hamkasb do'stlarimdan biri o'z o'rniqa Qozog'istonning Oqsuv shahridagi o'qituvchilar tayyorlaydigan kollejning sirtqi bo'limi talabalariga yozgi sessiyada ikki hafta tarix fanidan dars o'tib kelishimni iltimos qildi. "Bir sababga ko'ra men o'zim berolmaydigan bo'ldim dedi u. Siz esa ta'tildasiz. U yerda ikki hafta darsga ham yaxshigina haq to'lashadi. Men qo'ng'iroq qilib qo'yaman. Sizni kutib olib, yotoq bilan ta'minlashadi".

Men biroz o'ylanib turib rozi bo'ldim. Oqsuv shahri Sayram tumanining markazi bo'lib, qadimda Isfijob, O'runkent, Saryom kabi turli nomlar bilan atalgan Sayram shahri ham shu tumanda joylashgan. Tarixiyligi nazarda tutilib, tumanga ham uning nomi berilgan. Qadamjolar, ziyyaratgoh joylarning ko'pligi jihatidan Sayramning istalgan boshqa tarixiy shaharlar bilan raqobatlasha olishi tarixchi sifatida kaminaga ma'lum edi. Bu shaharni ziyyarat qilish ishtiyobi va ba'zi boshqa jihatlar masalani uzil-kesil hal qildi. Boshqa jihatlarning asosiyisi shu ediki, cho'g'i pastroq bo'lган ta'il pulini deyarli butunlay sarflab bo'layozgan edim-u, ta'tilning o'zi tugashiga hali ancha bor edi.

Xullas, ham ziyyarat, ham tijorat deya chegaradan o'tib, Chimkent viloyatidagi Oqsuv shahriga yo'l oldim. Yetib kelganimning ertasigayoq tarix fakulteti sirtqi bo'limi o'zbek guruhi talabalariga o'rta asrlar tarixidan dars o'tishni boshladim. Dastlabki kunlar darsdan so'ng Oqsuv shahrining o'zini aylandim. Kunlar issiq bo'lgani uchun shahar yaqinidan oqib o'tuvchi Oqsuv daryosida cho'milishni biron kun ham kanda qilmadim. Bu daryo oq rangli tog' jinslarini oqizib kelganidanmi, suvi go'yokim bo'r qo'shilgandek oppoq edi. Yakshanba kuni ertalabdan Sayramga jo'nab, kun bo'yи o'ndan oshiq ziyyaratgohni aylanib, kechqurun horib-charchab Oqsuvga qaytdim.

Tahsilning ikkinchi haftasi boshlangach, talabalardan tumanda yana qanday diqqatga sazovor joylar borligini so'radim. Ravshan ismli yigit Oqsuv yaqinidagi qadimiy qishloq Mankentda tarix va o'lkashunoslik muzeyi borligini aytdi. Ravshan o'zi mankentlik ekan va darsdan so'ng muzeysiga birga borishga kelishib oldik.

Ravshan o'rta bo'yli, sochlari jingalakka moyil chirolyi yigit. Diqqatni darhol tortadigan jihatlardan biri uning ko'zlaridagi ma'yuslik ifodasi edi. Bu ifoda ko'zlarining tub-bidan kelayotganday tuyular, ba'zan dars orasida hazil-huzul gaplar aytilib, Ravshan barcha qatori kulimsiraniganida ham ko'zlarini ma'yuslik tark etmasdi. Darsda savollarga yaxshi javob bersa-da, ovozida ham hazinlik, hatto bir oz asabylik sezilardi.

Mankent Oqsuvga shundoqqina yondoshib turgani uchun, mening istagimga ko'ra piyoda yo'lga tushdik. Oqsuv markazidan Mankent yo'liga qarab burilganimizda Ravshan do'kondan bir quti sigareta sotib oldi. Ustozlarga xos ohangda unga nasihat qildim: Shu savilni tashlasangiz bo'lmaydimi? Ham sog'liqqa, ham hamyonga ziyon-ku bundan.

Ravshan ma'yus kulimsirab dedi:

Asli o'zi chekuvchi emas edim men. Boshlaganimga bir yil bo'ldi.

Nega boshladitingiz? Birov majbur qildimi?

Shu ... boshimga bir ish tushdi, domla.

Nima ish tushdi? Bo'ydoq ekansiz, ro'zg'or, bola-chaqa tashvishlaridan hali ozod bo'lsangiz.

Uylanmoqchi bo'lganimda to'ydan oldin qaylig'im vafot etdi.

Nahot? Nega? Qanday qilib?

Ravshan xo'rsinib dedi:

Baxtsiz hodisa tufayli. Bir necha kishi mashinada ketishayotganda avariylaga duchor bo'lishgan.

Xudo rahmat qilsin. Qanday yomon hodisa-ya! Kechirasiz, o'zim bilmay hayotingizdag qayg'uli voqeani sizga eslatib qo'yibman. Hechqisi yo'q, baribir men buni eslamagan kun, soat yoki lahza yo'q.

Biz bir oz indamay yurdik. Ravshanning doimiy ma'yusligi sababi menga endi ayon bo'lgan, ammo unga qanday tasalli berishni bilmas edim. U sigaret qutisini hali ochmaganini ko'rib dedim:

Mayli, chekavering. Vaqt kelganda tashlarsiz, balkim.

Ravshan "rahmat, domla" dediyu, bir dona sigaretni yoqdi.

Qaylig'ingizni sevarmidingiz

Ha, birinchi sinfdan buyon. O'n yil bir partada o'tirganmiz.

Oldiniga "bechora yigitning yarasini tirnamay qo'ya qolay, suhbatni boshqa mavzuga ko'chirgan ma'qul" deb o'ylagan bo'lsam-da, beixtiyor berilgan savolimga oлган bu javobdan so'ng Ravshanning muhabbat tarixiga qattiq qiziqib qoldim. E'tirof etishim kerakki, qiziqishim sabablaridan biri hikoya, hatto qissaga o'xshash ba'zi narsalar qoralab yurishim edi. Qalamkashlik kasaliga chalingan odam turmushdagi har bir hodisadan o'ziga ijodiy material izlashi ma'lum.

Meni kechiring, Ravshan, lekin men boshingizdan o'tgan voqealarni imkon qadar to'laroq, tafsilotlari bilan eshitgim kelyapti.

Agar sir bo'limasa, bir boshdan hikoya qilib bersangiz. Ham yo'l qisqaradi, ham bir oz bo'lsa-da, ko'nglingizni bo'shatib olasiz.

Mayli, domla dedi Ravshan va yarim chekilgan sigaretni yerga tashladi.

Bu paytda biz Oqsuv chekkasiga yetdik va ko'z oldimizda Mankent qishlog'i namoyon bo'ldi. Namoyon bo'lgandayam bor bo'y-basti bilan, butunicha. Chunki Oqsuv tepalikda bo'lsa, Mankent past tekislikda joylashgan. Bog'-rog'lar bilan o'ralgan hovlilar, polizlar, oltinrang bug'doyzorlar kaftagidek ko'rinar, Mankentning chor-atrofi doirasimon qir-adirlar bilan o'ralgan uchun go'yokim ulkan laganga mohir rassom tomonidan qishloq manzarasi ishlanganday taassurot qoldirardi. Men bu manzaraga bir necha daqiqha mahliyo bo'lib qoldim. G'ir-g'ir shabada esar, Ravshanning dardli hikoyasini bag'riga sig'dirish uchun zamin kengayib ketgandek edi.

Bu shundan boshlangan... Men ilk bor birinchi sinfga borganimda o'quv yili boshlanishiga bag'ishlangan tantanali tadbirda mening o'ninchisini sinfa o'qiydigan akam o'sha qizchani yelkasiga o'tirg'izib davrani aylangan va qiz birinchi qo'ng'iroqni chalgan edi. Uni o'shanda taniganman va o'sha ilk bor ko'rganimdayoq yaxshi ko'rib qolganman. O'qituvchimiz "kim kim bilan partadosh bo'lishni xohlaydi" deganda darhol uning yoniga o'tirib oлganman. U bilan birinchi sinfning birinchi kunlaridanoq juda inoq bo'lib qoldik. Tanaffusda ham bir-birimizdan ajramasdik hisobi. Katta tanaffusda uyimizdan olib kelgan non va boshqa yeguliklarni birga yerdik. Bayramlarda albatta otkritkalar yozib bir-birimizni tabriklardik. Darsdan so'ng men uni uyigacha kuzatib qo'yib, so'ng uyimga ketar, ertalablari ham maktabga birga kelardik. O'qigan kitoblarimiz ham bir xil bo'lib, aksari muhabbat mavzusida edi. Darsni o'zlashtirishimiz ham qariyb bir xil bo'lib, o'qituvchilar hazillashib "bularning bittasi oлgan bahoni ikkinchisiga bemalol so'ramasdan qo'ysa ham bo'ladi, chunki javobida baribir farqi bo'lmaydi" deyishardi. Bizning munosabatimiz barchaga ma'lum, bilmaganlar, doim birga yurganimizdan, qarindoshlarning bolalari bo'lsa kerak, deb o'ylashardi. Bolaligimda "katta bo'lgach, kimga uylanasan" deb so'rashganda, men hech ikkilanmay "Zilolaga" deb javob berardim. Aminmanki, Zilola ham bunday savollarga shunday javob bergan.

- This is not registered version of TotalDocConverter.

- Kitoblar olami surʼiyotiga qarxansiz-da.

Ha, shunday. Faqat bolalikda emas, ulgʼayganimda ham shu javobni berar, chunki bundan boshqacha boʼlishini sira tasavvur qilolmasdim.

Maktab yoshida sevishganlarni yoqtirmaydigan muallimlar ham boʼladi. Umuman, oʼqituvchilarning koʼpchiligi shunaqa.

Tarbiyaviy soatlarda sizlarni "tartibga" chaqirishmaganmi?

Yoʼq, biron marta ham. Chunki bizning munosabatimiz odob doirasidan tashqari har xil fikr-oʼy, gap-soʼz va xatti-harakatlardan yiroq edi.

Endi, har holda yuqori sinflarda, sevgi filmlari taʼsirida boʼlsayam, sizlarda ham romantik uchrashuvlar boʼlgandir. Masalan, ilk bor boʼsa olish kabi...

Oʼz savolimning beadabonaligini anglab turardim. Ammo bu oʼrinda ham qalamkashga xos har bir narsani ikir-chikirigacha bilib olish istagi andishadan ustun keldi.

Yoʼq, biron marta qoʼlini ham ushlamaganman, dedi Ravshan qatʼiy ravishda. Biz bu mavzularda suhbatlashmaganmiz hatto. Ertakdan ham oʼtib ketdi-ku buyogʼi. Shu zamonda shunchalik iboyu hayoga qoyil! Bunday narsalar borligini ham bilmasdik, dersiz hali...

Borligini bilardik. Lekin na menda va na unda bunday istaklar boʼlgan. Biz bundan uyalardik. Keyin, oʼpisib-quchoqlashadiganlar bir-birlaridan tez sovib, ajrab ketishganini ham koʼp koʼrgan edik.

Uning oʼlimini eshitgach, qanday holatga tushdingiz?

Men avvaliga ishonmadim. Maktabni bitirganimizdan soʼng bir yil oʼtgach, biz bir-birimizga fotiha qilingan va toʼyga sanoqli kunlar qolgan edi. Bir doʼstimning toʼyi boʼlayotganda men uni kelishilgan joyda kutdim. Bir haftadan beri koʼrishmagan edik. Ammo oʼn yil mobaynida u birinchi marta ahdashilgan vaqtida kelmadni. Men ancha kutgach, bir oz xafa boʼlib uyya qaytdim. Ertasiga bir tengdoshim menga shu xabarni aytidi. Lekin unga ishonmadim. Chunki koʼpincha yolgʼon gapirardi. Keyin boshqalardan ham eshitdim. Mashinada besh kishi boʼlgan. Mashina katta tezlikda agʼdarilgan va uch kishi halok boʼlib, boshqalar ham ogʼir jarohatlar olishgan.

Bu xabarni ishonchli kishilardan eshitganimda yuragimdan bir narsa uzilib tushgandek boʼldi. Ammo men hamon ishonmasdim. Ishonolmasdim... Janoza boʼlyapti, ammo men koʼzlarim bilan ayollar orasidan uni qidiraman. Bir payt taʼziyaga kelganlar orasida shu gap yoyilib qoldi: "Marhumaning koʼzi hech yumilmayapti ekan. Qariyalar aytishdiki, shoʼrlik qiz aziz bir kishisini intiq boʼlib kutyapti, uni albatta boshi ustiga keltirish kerak".

Meni suyab tobut oldiga olib borishdi va Zilolaning yuzini ochishdi. Uning boshining tepa qismi jarohatlangan, yuzi, umuman, butun boʼlib, ayrim joylarining terisi sidirilgan va bir necha tishi singan edi. Bundan koʼz oldim qorongʼilashib qoldi... Oʼzimga kelganimda meni hovliga olib chiqishgan va suv ichirishayotgan edilar... Bir necha kungacha mutlaqo u xlabelolmadim.

Ravshan hikoyasini tugatgach, Mankent qishlogʼini oralab, anchagacha indamay bordik. Afsonalardagina boʼladigan benihoya pokiza va maʼsum hamda shu qadar gʼamgin muhabbat qissasi menga qattiq taʼsir qilgan edi.

Oʼn bir yil oʼzlariga dogʼ tushirmay, muhabbatlarini sadafdagagi durdek ardoqlab yurib, endi bir-birlariga yetdim deganlarida nega taqdir ularga bu achchiq qismatni ravo koʼrdi? Shunday goʼzal muhabbatni ato etgan Ollohamunga turmush gʼuborlari qoʼnmasadn abadiy musaffo holida qolishini istadimi yoki?

Ollohamunga sabr-toqat bersin, dedim Ravshanga. Uni mangu yoʼqotdim, deb kuyinmang aslo. Bir kun kelib, ruhlaringiz uchrashadi.

Mening bunga ishonchim komil, domla.

Shunday muhabbatga sazovor boʼlgan odamning irodasi ham shunga yarasha boʼlishi kerak. Oʼqishga kirib toʼgʼri qilibsiz. Boshiga qanday fojia tushmasin, odamning tarki dunyo qilishi munosib emas. Vaqt oʼtib, koʼngil yaralari bir qadar bitgach, uylanasiz.

Oilaviy hayot, farzandlar quvonchi sizga tasalli boʼladi.

Ha, gaplaringiz rost. Uydagilar meni gʼamdan tezroq forigʼ boʼlar deb, boshqa qiz topib uylantirmoqchi boʼlishdi. Lekin ular sovchilikka borgan barcha hamqishloqlarimiz rad javobini berishdi. Odamlar: "Bu endi Zilolani esdan chiqarolmaydi, boshqa xotin bilan yaxshi yashab ketolmaydi" deyisharkan. Oʼzim ham shunday deb oʼlayayman.

Hali oʼqishingizni tugatishingiz kerak. Siz muhabbatga munosib va sevishga qodirsiz. Ajab emas, qalbingizga yana muhabbat kirib kelsa. Oʼsha muhabbatni kutib yashang va uning kelishiga ishoning.

Mening bu soʼzlarimdan soʼng Ravshan ishonqiramagandek maʼyuslik bilan qarab qoʼydi, ammo hech narsa demadi.

Muzeyni tomosha qilib, qishloq tarixi bilan tanishayotganimda ham mahzun qissa xayolimdan ketmas, u Mankentni nazarimda yanada ulugʼvor qilib koʼrsatardi.

Qaytishda Ravshan meni astoydil uyiga bir piyola choyga taklif qildi. Lekin men "yana bir yoʼlim tushganda kirarman" deb unamadim. Chunki bugungi kun taassurotlari men uchun kutganimdan ham ziyoda boʼlgan edi.